

**QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 3-soni)**



**FILOLOGIYA
PHILOLOGY**

HAZRAT SOHIBQIRON AMIR TEMUR HAYOTI HAQIDA HAQIQAT VA RIVOYATLAR.

M.Jamoliddinov
pedagogika fanlari nomzodi, dotsent
H.G‘iyosiddinov-magistrant

Annotatsiya. Ushbu maqolada Amir Temurning tug‘ilishi, xayot yo‘li, xarbiy yurishlari jarayonidagi qaxramonliklar xaqidagi epizodlar va ibratli rivoyatlar tadqiq etilgan. Uning sho‘ro davri va mustaqillik yillarida ilmiy o‘rganilish jarayoni tahlilga tortilgan.

Kalit so‘zlar. Sohibqiron, Ko‘ragoniy, Yildirim, ilmiy ekspedisiya, vatan parvarlik, Renassans.

Аннотация. В статье рассматриваются рождение, жизненный путь, героические эпизоды и поучительные легенды Амира Темура во время его военных походов. Анализируется процесс его изучения в советский период и годы независимости.

Ключевые слова. Сохибкирон, Кырагони, Йылдырым, илмий экспедиция, ватан парварлик, Возрождение.

Annotation. This article examines the birth, life path, heroic episodes and instructive tales of Amir Temur during his military campaigns. The process of his study during the Soviet era and the years of independence is analyzed.

Key words. Sohibqiron, Kyragoniy, Yildirim, ilmiy expedition, vatan parvarlik, Renaissance.

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi 1991-yil Mustaqillikni qo‘lga kiritgandan keyin tili , dini , urf – odatlari , unutilgan qadriyatlarini tiklay boshladi. Ayniqsa, tariximizni, adabiy merosimizni, unutilgan o‘tmish ajdodlarimizni hayot yo‘llarini o‘rganish va yosh avlodga yetkazish fan oldidagi dolzarb vazifalardan biriga aylandi. Jumladan, chor Rossiysi bosqini va Sobiq sho‘ro tuzumi (1917-yil, 7-noyabr)ni 80 yildan ortiq davrida Amir Tyemurning hayoti va faoliyatini, ijodini o‘rganmadik, uning nomi qora bo‘yoqlarda “bosqinchi hukmdor“ nomi bilan salbiy qahramon sifatida targ‘ib etildi.

Amir Temur hayot yo‘li haqidagi yaratilgan tarixiy asarlarning ko‘pi arab tilida yozilgan bo‘lib, arab, fors – tojik va turkiy tilda bitilgan bo‘lsa ham, syenzura ostida kommunistik mafkuraga zid ravishda o‘rganish taqiqlandi. Jumladan, 1968-yilda akademik Ibrohim Mo’mnovning “Amir Temurning O’rta Osiyo tarixida tutgan o’rni va roli” risolasi nashr etildi.

O’sha paytda olim O’zbek sovet ensklopediyasining bosh muhariri bo’lib ishlayotgan edi, kitob chop etilgach olimga nisbatan tazyiqlar boshlandi. Uni bosh muharir vazifasidan ozod etdi. Bu holat olimga qattiq tasir qildi, u 65 yoshida vafot etdi. Biroq , Samarqand , Shahrisabz .Buxoro va boshqa shaharlarda u qurdirgan tarixiy obidalarni o‘rganishda Amir Temurning bunyodkor podshoh ekanligini his etib yashadik.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Ma’lumki, musulmon sharqida XV-XVI asrlarda ikkinchi Renessans uyg‘onish davrini asosida Amir Temur faoliyati turadi. Buning natijasida Ulug‘bek, Qozizoda Rumi, Alisher Navoiy, Bobur va boshqalar jahon ilm fani va madaniyati taraqqiyoti rivojlanishiniga katta hissa qo‘shdi.

Bugun Amir Temurga bag‘ishlangan ko‘pgina yozma yodgorliklar va bizgacha yetib kelgan Sovet davrida unga bag‘ishlangan ayrim kitoblar, manbalar “Tarjimai holi“ xato ekanligini ko‘rsatdi.

Ma’lumki, Temur 1391-1395-yillar To‘xtamishxonni yengib, Oltin O‘rdanining kuchini abadiy singdirdi va Rossiyaning mustaqillikka erishishiga yo‘l ochib berdi. Biroq, o‘tgan asrda yashagan rus tarixchilari Temur va uning faoliyatiga haqqoniy baho bera olmadilar.

Mustaqillik yillarda yaratilgan tarixiy, ilmiy, tarjima qilingan manbalarni o‘qib uning hayot yo‘li hayratlanarli, sharaflı ekanligini his qilyapmiz. Jumladan , Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma”, Temurning o‘zi tomonidan yozilgan “Temur tuzuklari “ (T. G‘. G‘ulom nash . 1991.), “Zafar yo‘li “ (T. “Nur “ nash. 1992.), Salohiddin Toshkandiyning “ Temyrnom“ (T. “Cho‘lpon” nash.1990.) , Ashraf Ahmadning “Ulug‘bek Muhammad Tarag‘ay“ (T.A.Qodiriy nash. 1994.), Turg‘un Fayziyevning “Mirzo Ulug‘bek avlodlari“ (T.Yozuvchi nash.1994.), Bo‘riboy Ahmedovning “Amir Temur” (T.A. Qodiriy nash. 1995.) va boshqa tarixiy asarlarda to‘liq o‘z ifodasini topdi .

Amir Temur ibn Tarag‘ay Muhammad Bahodir melodiy 1336-yil 9-aprel (736) sichqon yilida , hijriy yil sha’bon oyining 25-kuni Shahrisabzdan 13 kilometr uzoqlikdagi Xo‘ja Ilg‘or qishlog‘ida tug‘iladi. Uning otasi Amir Tarag‘ay davlatmand kishi bo‘lib , Bayonqulixon saltanatida katta mavqega ega bo‘lgan. Onasi Teguna xotin (Tegina Begim Moh) bo‘lgan. U oilada yagona o‘g‘il farzand bo‘lib tug‘ilganligi sababli umri uzoq bo‘lib yashasin deb unga o‘zbek odati bo‘yicha Temur deb ism qo‘ydi.

Temur bolaligidan dovyurak, qo‘rqmas, jasoratli, vatanparvar yigit bo‘lib o‘sadi. 7 yoshida madrasada o‘qiydi. Bu haqida u “Qo‘limga so‘zlar jadvalini tutqazishdi, men o‘qiy boshladim va erishgan muvaffaqiyatlarimdan g‘oyat sevinchga to‘ldim. Barcha o‘quvchilarga boshliq bo‘lib oldim. Men qatnashgan barcha yig‘inlarda ulamolar yaqiniga o‘tirishga harakat qilardim va tiz cho‘kib o‘tirardim. Kattalarga nisbatan shunday bajo keltirishni o‘zimga odat qilib oldim.

Ko‘chada men bolalar bilan o‘ynardim. Bolalar bilan urush – urush o‘ynab, o‘zimni amir etib tayinlardim – da , o‘yinni boshqarardim va bolalarning bir guruhini ikkinchi gurux bilan

urushtirishni mashqlardim. 12 yoshga to‘lganimda bolalarcha o‘yinlardan orlanadigan bo‘ldim va vaqtimni o‘zimcha tenqur o‘sirinlar bilan o‘tkazishga harakat qildim “ - deb yozadi.⁴⁶⁸

Demak, Temurda nasliy fazilat bo‘lib, bolalikdan tashkilotchilik, liderlik qobiliyati shakllana boshlagan. U otda yurish, chavandozlik, kurash, harbiy yurishlarda jang mahorati va boshqa harbiy san’atni mukammal egalladi.

Temurning otasi Tarag‘ay Qashqadaryo vohasining begi (amiri) edi. Uning o‘ziga tegishli navkarlari bo‘lib , o‘g‘li 16 yoshga to‘lganda xizmatdan iste’fo beradi. Byeklik lavozimi va qo‘l ostidagi boshqaruvni unga topshiradi va quyidagicha nasihat qiladi:

1. O‘z ajdodlaringni hurmat bilan yod et.
2. Shariat bilan ish tut.
3. Ollohoi doimo yodda tut , uning yagonaligiga va bergen ne’matlariga shukr qilib yasha.
4. Qarindosh urug‘chilikni uzma , birovga yomonlik qilma , har bir mahluqqa rahmdil bo‘l.

Amir Temur bir umr otasining bu nasihatlariga amal qilib yashadi, ish tutdi.

1359 -1360 yillarda Movarounnahrga jatta (mo‘g‘ul) podshohi Chingizzon avlodidan (chig‘atoy) bo‘lgan Tug‘luq Temirxon ibn O‘g‘ul xo‘ja ibn Duvaxon (uning bobosi Duvaxon Chig‘atoxxonning nabirasi bo‘lgan) bostirib keldi. Ammo turkiy amirlarning birdam emasligi, urug‘, qabilachilikiligi sababli turkiylar yengildi. Amir Temur butun hayoti davomida ota o‘giti, pirlari Sayid amir Kulol hamda Zayniddin Taybodiy hamda biron ishni qilmoqchi bo‘lsa Kengash o‘tkazib, keyin Qur’ondan fol ochardi va Qur’on hukmi bilan Olloho taolodan madad so‘rab ish boshlardi. Hatto, urushga kirishdan oldin Munnajjimlar bashoratiga ham quloq tutardi. Bu ma’naviy tadbirlar uning buyuk Sohibqiron bo‘lishida katta rol o‘ynadi. Sohibqiron – Amir Temurning laqabi “Sohib-ega”, “Quron – ilmi” ...ikki sayyora Zuhro (Venera). Mushtariy (Yupiter) o‘z harakatida bir-biriga yaqinlashish holatini “qiron burji” deb atab, uni baxt-saodat alomati daya fol ochilgan, shuning uchun, “Sohibqiron” – mazkur ikki sayyora bir-biriga yaqinlashgan vaqtida tug‘ilgan “baxtiyor podshoh” degan ma’noni bildiradi.

Jumladan , dushmani bosqinch Tug‘luq Temirxon oldiga borishdan avval “Quron”dan varaq ochsam ,”Surayi Yusuf alayhissalom chiqdi va Qur’oni majid hukmiga amal qildim“⁴⁶⁹ – deb yozadi. Hamda uni G‘uzor degan joyga tushgan xabarini eshitib, “ Movaraunnahrni “qatlu g‘oratdan qutqarib qolishga “ qaror qiladi. Buning bir yo‘li ochko‘z mo‘g‘il amirlarini mol dunyo berib ko‘nglini olish va tinchlik sulkini tuzish ekanligini tushunadi va amalga oshiradi .

Tug‘luq Temurxon Amir Temurning bunday ishini “ yaxshilikka yo‘yib “ butun Movarounnaxrni va Jayhun daryosini sohillarigacha bo‘lgan yerlarga hukmronlik qilishga ahdnama yozib beradi. Temur bu haqida “ Men tajribamdan shuni bildimki, 100 ming otliq askar qila olmagan ishni bir to‘g‘ri tadbir bilan amalga oshirish mumkin ekan “.⁴⁷⁰ Afsuski

⁴⁶⁸ (Амир Темур Кўрагон “Эафар йўли “ Т. “Нур “ 1992. 31 б.)

⁴⁶⁹ “Темур тузуклари” 18бет.

⁴⁷⁰ Темур тузуклари “ 19бет.

, Tug‘luq Temirxon 1360 -1361-yil ikkinchi marta Movorunnahrga qo‘sishin tortib kelib o‘z ahfidan qaytadi, Temurni o‘rniga davlat va siyosat ishlarida layoqatsiz bo‘lgan Ilyoshoja o‘g‘liga Movarounnahrni boshqaruvini topshiradi. Temurni sipohsorlik (navkarlar boshlig‘i) qilib belgiladi. Biroq, uning dushmanlari Temur salobati va haybatidan qo‘rqib Tug‘luq va Temur o‘rtasidagi munosabatlarni buzdi. U butunlay Temurni o‘ldirib yo‘qotish haqida yorliq jo‘natdi. Bu xabarni bilgan Temur atrofiga Barlos uluslarini bahodir yigitlarini to‘plab Xorazmga yurish qildi.

Amir Temur hayoti va ijodi haqidagi asarlarni o‘qib tahlil qilar ekanmiz, uning butun umri Turkiy urug‘, qabila, amirlarni birlashtirish va harbiy yurishlar, diniy e’tiqod birligi uchun kurash jarayonlari bilan o‘tganligini ko‘ramiz.

“ Jeta amirlari meni o‘ldirish to‘g‘risida Tug‘luq Temurdan yana uch marta buyruq oldilar , lekin qotillar bu ishni to‘g‘ridan –to‘g‘ri bajara olmay qulay fursat kutib turdilar . Shu payt pirimdan (Shayh Kulol) bunday ma’nodagi maktub keldi.”Agar sendan kuchli bo‘lgan dushmanlaringni yengolmasang , qochib qutilish yo‘lini izla buni Rasululloh aytgan.” Men pirimning aytganiga qulq solib Samarqanddan ketdim va tog‘larda berkinib yurdim .”⁴⁷¹ Amir Temurning harbiy yu rishlarini sanalarini izohlashda olimlar va tarixchilar “ Ikki yillik yurish ” (1184 – 1185), “ Uch yillik yurish ”(1388 -1390 Eron , Iroq , arab mamlakatlari), ” Besh yillik yurish (1392 – 1393), “ Yetti yillik yurish ”(1398 -1404) nomlari bilan o‘rganadi. Amir Temur har bir yurishida o‘ziga xos harbiy taktikani qo‘llaydi .Yurish oldidan Kengash o‘tkazadi , doimo Olloh taolodan madad so‘raydi.

“Men 36 yoshga to‘ldim ...Jetaning katta lashkari amirlari ustimga yurish qilib kelayotgan edi. Jeta askarlarining umumiyligi soni 30 ming kishi ekanligini eshitdim. Menda esa amir Husaynning askarlaridan tashqari (men uning sodiqligiga hech qachon to‘liq ishonmasdim) faqat 6 ming kishidan iborat askarim bor edi. Ko‘rinib turibdiki ,men son jihatidan dushmanidan besh barabar zaif edim . Men Qur’onga ko‘ra qur’a tashlagan edim ,yana bu oyat ochildi : “ Bir necha kichik to‘dalar Alloho niing izni birla katta qo‘sishinlar ustidan g‘olib kelgan ” (“ Baqara surasi ” , 249-oyat) Qur’onning shu oyatini o‘qib , men xotirjam bo‘lib turdim”⁴⁷²

Temur bunday kuchlarni ochiq jangda yengib bo‘lmasligini bilib, go‘yo “ qo‘rqqan kishidek “ chekinib ,dushmanini kuchsizligiga ishontirib “ to‘satdan qaqshatqich zarba berib g‘alaba qiladi.

Amir Temurning “ Besh yillik “ yurish paytida uning to‘rtinchi o‘g‘li bo‘lgan Shohruh Mirzoning o‘g‘li Mirzo Ulug‘bek 1394-yil 22-mart (hijriy 796 yil 19 jumodul avval oyining 19 yakshanba) kuni Iroqi Ajamning Sultoniya shahrida dunyoga keldi. Uning onasi malika Gavharshodbegim Amir Temurning sevimli kelinlaridan bo‘lgan. Bu paytda Amir Temur esa Iroqning shimolidagi Mardni shaharini ishg‘ol qilish uchun jang olib borardi. “Sohibqiron saroyining o‘ziga xos urf – odatlari bor edi. Qaysi malika homilador bo‘lsa, ko‘z yorishi muddati yaqinlashgach, ular qayerda yashashidan qat’iy nazar, Temur saroyiga yoxud

⁴⁷¹ Амир Темур “Зафар йўли” 59 бет.

⁴⁷² Амир Темур “Зафар йўли” 72 бет.

o‘rdugohiga olib kelinar va farzandlar shu yerda tug‘ilar edi. Bola tug‘ilgach, u boshqa malika tarbiyasiga topshirilar va enagalar tayinlanardi. Bolani onasi ma’lum muddatdan so‘ng o‘z joyiga jo‘natib yuborilardi. Bundan ko‘zlangan maqsad har bir shahzoda chaqaloqligidan boshlab , begona ona tarbiyasida erka , tantiq emas, aksincha chidamli, bir so‘zli irodali, qat’iyatli va jasur bo‘lib voyaga yetish lozim edi“⁴⁷³.

Amir Temur Qozonxonning qizi Saroy Mulkxonimga uylanadi .Shuning uchun , Amir Temur Qozonxonning kuyovi bo‘lganligi sababli Ko‘ragoniy , ya’ni “xon kuyovi” laqabini oladi. Qozonxon esa Chingizni nabirasi bo‘lib,uni Qozg‘on o‘ldiradi.

Amir Temurning har bir yurishi jarayonlaridagi voqealar o‘rganishga muhtoj, ibratlidir. Jumladan, Turkiya podshoxi Boyazid bilan tinchlik, hamkorlik, do’stlik qilish yo’lidagi urinishlari natija bermaydi. Uni Rumga ikki marotaba yuborgan elchilari Yildirim Boyazidning haqoratli javob xatini olib keladi. Ibn Arabshoxning yozishicha Amir Temur uning huzuriga bo‘yin egib kelishini talab qilgan, aks holda “Amir Temurning ayollari uch taloq” (taloq be’salotin) bo’lsin degan xaqoratli gaplarni keltirgan. Natijada, Temur Anguriya yo’li bilan Qaysar ustiga Lashkar tortadi.” Qaysar to’rt yuz ming otliq va piyoda askarlar bilan “ menga qarshi yuzlandi.Urushni boshladim va yengdim”. Bu voqeа 1402- yil 25- iyulda bo’ladi. Sulton Mahmudxonning yigitlari Qaysarning lashkarboshilari bilan qo’lga tushirib Temur huzuriga olib keladi. Temur uni ko’rib bog’langan qo’llarini eshikog’aga yechishini buyuradi. Hamda Mavlono Shamsiddin Olmaliq bilan borib ikki qo’ltig’idan tutib hurmat bilan yetaklab to’riga o’tqazadilar. Jangda shaxid bo‘lganlar haqqiga Qur’on tilovat qilib duo qilinadi. Boyazid ham qo’lini duoga ochadi. So’ngira Amir Temur Boyazidga yuragida yig’ilib qolgan dardini bayon qiladi:

“Olamning ahvoli Parvardigorimning qudrat va irodasiga bog’liq. Bunga boshqa hech kim aralasha olmaydi. Ko’ring dunyonи taqdiri siz kabi bir ko’zi ko’r bilan, bir oyog’i oqsoq menga qolibdi”- (M.J), biroq siz murosa’yu-madorga bormadingiz agar Sulhga kelishganingizda shavkat va yaratgan egam bizga bergen qudrat Sizning ilkingizda bo’lardi. Biroq, lashkarimiz sizning mamlakatingizda turibdi” deydi. ⁴⁷⁴ Boyazid Yildirim qilib qo’yan ishidan pushaymon bo‘lib afv etishni, gunohidan o’tishdan, o’zi va farzandlari Muso va Mustafo to tirik ekan tobelik xizmatkorlikdan chiqmasligini o’tinib bukilib so’raydi.

Hazrat Sohibqiron Amir Temur Qaysarning bu javobidan xursand bo‘lib uni shoxlik libosi bilan qaytadan siyladi. Boyazid Temurning oliyjanoblik himmati, sahovati, insonparvarligidan hayratga tushadi, “taajjub barmog’ini tishladi”. Qismatiga achindi va alami o’kinchi ichida qoldi. Temur oliyjanoblik qilib uni qo’yib yubordi. Ammo Boyazid o’sha davrdagi Turkiya poytaxti Bursaga bormadi. Oq shaharda turg’un yashadi, marhum Shayx Mahmud Xayron xonaqosida kun kechirdi. Biroq, bu yerda bor yo’g’i 9 oygina yashadi, xolos...

⁴⁷³ Турғун Файзиев “Мирзо Улурбек авлодлари “ Т. “ Ёзувчи наш. “ 1994 й. 3 б

⁴⁷⁴ Amir Temur “Temur tuzuklari” T. G’ofur G’ulom nashr. 1991. 554 bet

“ Butun Yevropani o’n uch yil mobaynida titratib kelgan, g’olibona yurishlari va har qanday dushmanni yondirib kelgan va shu bois Yildirim Boyazid (shiddatli, “chaqmoqday” Boyazid) shuhrat qozongan buyuk bir podshoh birdan o’chdi, ketdi”⁴⁷⁵

Lekin, Temur Boyazidni yengmaganida (1402-yil) turklar Yevropani butunlay yoki qisman boisb olgan bo‘lar edi. Turklar Konstantinopolni 1453-yil bosib olishi bilan tugamay, bosqinchilik urushi yana davom etishi mumkin edi. Dunyo tarixi esa butunlay boshqacha bo‘lishi mumkin edi. Temurning Boyazid ustidan g‘alabasi Yevropani turk istilosidan xalos etdi. Turklar mag‘lubiyatidan Yevropa tiklanib olishi uchun qariyb 50 yil ya’ni yarim asr vaqt kerak bo‘ldi. Bu davrda Yevropa o‘zini butunlay tiklab oldi. Shuning uchun G‘arbiy Yevropa xalqlari Temurning harbiy siyosatiga tan beradilar va uni “Tran Temurbek”, ya’ni “Buyuk Temurbek” deb ulug‘laydilar; u haqida dramatik asarlar yozdi, unga haykal qo‘yildi va uning siyemosini tasviriy san’atda aks ettirdi.

Mag’lubiyat alami, sharmandalik, toju taxt dardi uni ich-ichidan yemirdi, ado qildi. 1403-yil 8-mart payshanba kuni 43 yoshida vafot etdi. Boyazidni o‘zini vasiyatiga ko‘ra uni piri Mahmud Xayron mozoriga dafn etishdi.

Hazrat, Sohibqiron Amir Temur Boyazidning vafoti habarini eshitib xafa bo‘ldi, uning ruhiga Quran tilovat qildi, xatto ertasi kuni ta’ziya uchun Oq shahriga bordi. “Boyazid Yildirimning farzandlariga, qarindosh yaqinlariga taziya bildirdi, ularga podshoxona siylash va navozishlar ko‘rgizdi, ularni har biriga zardo’siy chophon kiygizdi, o’g’li Musoga esa xos hal’at, murassa kamar, shamshir va 100 bosh nasldor ot etib Bursa va Rum mamlakatini topshirdi, bu haqida unga ol’tamg‘a bosilgan maxsus yorliq ham berildi. So’ng Musoga “Otangizning muqaddas hokini sultonlarga xos izzat-ikrom bilan Bursaga olib borib, tirikligida o’zi qudirib qo‘ygan oliy imoratga dafn ettiring ”- deb aytdi”⁴⁷⁶

Amir Temurdagi bunday himmat, muruvvatini bugunki kundagi amaldor, rahbar, yosh avlod xatto din targ’ibotchisi, ota-onalar farzandlariga ibrat qilib ko‘rsatishi, o’rganishi lozim. Ma’naviy ota sifatida dushmanining o’g’li Musoga “otangizning o’zi qurban oliy imoratga dafn eting ”- deb aytgan nasihati sharqona ota tarbiyasining o’gitidir.

2024 yil 10 noyabrdan – 17noyabrga qadar Turkiyaning Erzurum shahrida Ota Turk universitetida ilmiy xizmat safarida bo‘ldim . Shahar o‘zining osoyishtaligi , tabiatining go‘zalligi ,tarixiyligi ,qadimiy obidalarning ko‘pligi bilan ajralib turadi .Odamlari samimiy va mehmondo‘st musulmon bo‘lib har Juma kunlarida Jome masjidlarida odamlar juma nomozini o‘qiydi. musulmon diniy e’tiqodiga amal qiladi.

Erzurum shahrini bog‘lovchi Karasu daryosi (Firat daryosining irmog‘i) ustidan o‘tishni ta’minlovchi Fil ko‘prigi qurilgan. Bu ko‘prik qadimda savdo yo‘llarini bog‘lashda , karvonlar va mahalliy aholini daryo orqali uzoq yo‘lini yaqin qilishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan.

Tarixchilar ko‘prikni 13 – 14 asrlarda qurilgan bo‘lib Ilxonlar davriga to‘g‘ri keladi deb , taxmin qilishadi .Biroq , qurilish davrini aniq belgilashni qiyinligi ,o‘sha davrga oid yozma

⁴⁷⁵ Bo‘riboy Axmedov Amir Temur T. A Qodiriy nashr. 1995. 553 bet

⁴⁷⁶ Bo‘riboy Axmedov Amir Temur T. A Qodiriy nashr. 1995. 553 bet

manbalarning kamligi , yetishmasligidir. Ammo “ Fil ko‘prigi “ deb nomlanishi haqida turli rivoyatlar bor .

Birinchisi , Amir Temur shaxsi bilan bog‘liq bo‘lib , Temur Boyazid bilan bo‘lgan harbiy jangda kuchli Rumni yengish uchun jang maydoniga fillarni olib kirgan .Buni oldindan sezgan hushyor Boyazid ko‘prikni buzib tashlaydi .Natijada jangchi fillarni o‘tishini iloji qolmaydi.Temur kuchli , jang mahoratiga ega Rumlarni yengish qiyin ekanligini bilib , ko‘prikni qaytadan qurdiradi va jang chi fillarni olib o‘tadi .Jangda g‘alaba qozonadi.Chaqmoq , yengilmas Boyazidni mag‘lub etadi.

Shuning uchun bugungi kunda mazkur ko‘prikni “ Fil ko‘prigi “ ,” Amir Temur ko‘prigi “ deb ham yuritiladi . Ko‘prikda jangchi fillar tasviri aks etgan rasm lar o‘z ifodasini topgan . Fil ko‘prigi Yerzurum shahrining qadimiy tarixidan darak beruvchi , Amir Temur davridan xabar beruvchi muhim tarixiy yodgorlikdir.

Amir Temur “yetti yillik yurish “dan Samarqandga 1404 yilni 19 iyulida (hijriy 807 yil 10 kuni muharram oyida) qaytib keldi. Hamda Bog‘i bihishtda to‘xtaydi. Ammo harbiy yurishlar , yo‘l azobi , mamlakat boshqaruvida podshohlikning o‘ziga xos bo‘lgan mashaqqatlari , yurt qayg‘usi uni jismonan ancha charchatgan edi . Shu sababli biroz og‘riydi. Lekin jismonan baquvvatligi ,qo‘lga kiritilgan buyuk g‘alabalar uning ma’naviy ruhiyatini ko‘tarib turardi.

Temur 1404 yil 7 sentyabr (hijriy 807 yil ,” bichin” – maymun yili) kuni Konigilda qurultoy chaqirib , nabiralarini uylantirish munosabati bilan katta nikoh to‘yi o‘tkazadi. Mazkur tantanaga barcha mamlakatlarning podshohlari va shahzodalarini taklif etadi. Uylanayotgan shahzodalar ichida Ulug‘bek ham bor edi. Biroq , to‘yda otasi Shohrux mirzo ishtirok etmaydi .Chunki uni Hirotda turishi “lashkarning butun Iroq va Ozarbayjondagi ort tarafi uchun kuchli madad va yordam berardi “.Bu hashamatli tantanali to‘yda Chingiz avlodlaridan Toyzi O‘g‘lon va Toshtemir o‘g‘lon ishtirok etishadi. Shu bilan birga to‘y marosimida “ farang elchilar “ – Fransiya elchilarini ham ishtirok etishib ular orasida Kastiliya va Leon qiollarining elchi josusi Run Gonsales de Klavixo ham bor edi.

To‘yda Ulug‘bek Jahongir Mirzoning o‘g‘li Muhammad Sultonning qizi Ugay begimga uylanadi. Shu bilan birga boshqa shahzodalar Ibrohim Sulton , Mironshoh o‘g‘li Ijal ,Umarshayx o‘g‘illari Pirmuhammad, Saydi Ahmad va Boyqorolarning ham nikoh to‘ylari o‘tkaziladi.

To‘y marosimlari qariyb ikki oy davom etadi . To‘y tugagandan keyin Temur Misr ,”Farang mamlakatlari “, Dashti qipchoq ,Jeta va boshqa o‘lkalar elchilarini qabul qilib , ularga katta hadyalar beradi va ularni o‘z yurtlariga kuzatib qo‘ydi.

Shundan so‘ng Temur Xitoy davlati yurishiga tayyorgarlik ko‘ra boshlaydi. 1404 yil 28 noyabr (hijriy 807 yil ,23 – Panjshanba) kuni Samarqandan lashkar bilan eng so‘nggi yurishi – Xitoy yurishiga yo‘l oladi. Bu yurishning ikkita maqsadi haqida tadqiqotchi olimlar fikr yuritadi :

1.Tarixchi olim Sharafiddin Ali Yazdiy “Zafarnoma “ asarida bunday yozadi “ Hazrat Sohib Qironning Chinu Xitoya yurishni azm qilishdan asl maqsadi kufr va fasod diyorini jihod va fath marosimini bajarish , jihod g‘araza va ahli shirkdan islom qasosini olish hamda diniy dushman mamlakatini g‘azot qilish edi “.

2.Olim Ashraf Ahmadning yozishicha :”Temurning Xitoya yurishining sababi 1368 yili Xitoylar Pekinda mo‘g‘ul sulolasini ag‘darib , o‘rniga Xitoylarning Min sulolasi keladi va xitoylar bu davrda kuchayib , Mo‘g‘ilistonning o‘zini ham o‘zlariga tobe’ qilib qo‘yadilar .O‘qday avlodlaridan Toyzi O‘g‘lonning Temur panohida bo‘lib ,bu yurishda ishtirok etishi fikrimizning isbotidir . Endigi galda Xitoylarning o‘tmishda bir necha marta bo‘lganidek , g‘arba , ya’ni Temur mulkiga tahdid qilishlarining xavfi tug‘ilib qolgan edi. Temurning yurishi ana shu xavfni daf’ etish edi.”

Temur 1405 yil 9 yanvar kuni O‘trorga kelib to‘xtaydi . Uzuliksiz yo‘l mashaqqatlari ,sovut qish fasli qartaygan hukmdorga ta’sir qiladi.Toshkandiyning “Temurnoma “ asarida yozishicha “ boshni shamollatish natijasida kasallik botindan “ yuzaga chiqadi.Sharafiddin Ali Yazdiyning ma’lumotiga ko‘ra har kuni kasallikning yangi alomatlari paydo bo‘la boshlaydi.

Rivoyatlarga ko‘ra , bemor Temurning yonida faqat Saroy Mulk xonimgina turishga haqli edi.Podshohning ahvoli kundan – kunga og‘irlasha boshladı .Hatto qo‘zg‘alishga ham madori qolmadi.Kecha-yu – kunduz Saroy Mulk xonim uni qarardi.Kunlarning birida u charchaganidan uyquga ketib qoladi. To‘satdan uyg‘onib

Tursa , hukmdor yotgan joyida yo‘q. O‘rnidan turib , tashqaridagi posbondan so‘raydi.U ta’zim qilib qorong‘iliqqa ishora qiladi.Saroy Mulk xonim o‘sha tomonga qarab yuradi. Hamda yelkasida chopon , chuqur o‘yga tolib , osmondagı oy va yulduzlarga qarab chuqur hayol surayotgan Temurni ko‘radi.

Saroy Mulk xonim hayaında “ Bu qanday gap , ulug‘ amir ! Qahraton qish , izg‘irinli tunda bu yerda turishingizda ne hikmat bor “, -- deb amirni o‘rdugoh tomon boshladı .O‘rdugohga kelib yotgach , Temur ho‘rsinib , shu kecha ko‘rgan tushini so‘zlaydi. “Men ikki chekkasi qamishzor katta yo‘ldan otimni yeldirib ketayotgan edim.Birdan qamishzor ichidan yo‘limga otam Tug‘luq Bahodir chiqib qoldi.Men hayratdan otdan tushib , otamni oldiga yura boshladı .Ammo otam mening oldimdan indamay o‘tib,otimni egar , jabduqlarini yechib , qamishzor ichiga kirib g‘oyib bo‘ldi.Men ortidan ot yonida turgan holda uyg‘onib ketdim .Bu hosiyatsiz tush dahshatidan tashqariga chiqqanimni ham sezmay qolibman ...Umrim ham poyoniga yetganga o‘xshaydur ...

--Yaxshi niyat qiling, amirim ,dard boshqa , ajal boshqa , sog‘lom bo‘lib ketasiz ,-- yig‘lagan holda tasalli berdi Saroy Mulk xonim .

--- Yig‘idan ne foyda, xonim ? Taqdirdan qochib qutulib bo‘lmaydi – deb javob berdi.Hamda barcha yaqinlarini huzuriga chaqirib, vasiyat qildi...

---Ma’lumingiz bo‘lg‘aykim ,Jahongir Mirzoning farzandi Pir Muhammad Mirzoni valiahd qilib tayinlaydurmen ,toki Samarqand taxti va arkon davlat aning hukmi farmonida bo‘lg‘ay .

1405 yil 18 fevral (hijriy 807 yil) Chorshanba kuni shoi bilan xufton namozi o‘rtasida jahonni larzaga keltirgan mashhur sarkarda , buyuk hukmdor Amir Temur Ko‘ragon hayotdan abadiy ko‘z yumdi.

Temur o‘limi ustida Saroy Mulk xonim bilan 11 yoshli ikki nabirasi Ulug‘bek Mirzo va Ibrohim Sulton mirzo ham birga edilar.

Temurning jasadi sovumasdanoq temuriy shahzodalar, harbiy boshliqlar o‘rtasida podshohlik uchun kurash boshlanadi .Sohibqironning vasiyatiga sodiq qolishga qasamyod qilgan temuriy shahzodalar qasamdan tez kunda yuz o‘giradi ...

Sharafuddin Ali Yazdiyning yozishicha, amir xo‘ja Yusuf Temurning jasadini 22 fevralda (23 sha’bon) Samarqandga yetkazib keladi.Samarqand shaharining hokimi Arg‘unshoh shahar darvozalarini berkitib , to haqiqiy valiahd Pir Muhammad Mirzo kelib taxt masalasi hal bo‘lma guncha shaharga hech kimni kiritmaslikni e’lon qiladi. Faqat uzoq davom etgan muzokaradan so‘ng Saroy Mulk xonim boshchiligidagi ayrim malikalar va yosh bolalargina shaharga kirishga ijozat beriladi. Shaharga kiritilmaganlar orasida Ulug‘bek Mirzo va Ibrohim Sulton Mirzolar ham bor edilar ...

Xullas , amir Arg‘unshoh Temur xazinalarini kalitini Xalil Sulton Mirzo qo‘liga topshiradi. 1405 yil 18 mart kuni Xalil Sulton Mirzo tantanali ravishda Samarqandga kirib , bobosi Temurning taxtiga o‘tiradi.

Temur barpo qilgan buyuk imperiya bir necha oy ichida bo‘linib ketdi.Temuriy lar o‘rtasidagi o‘zaro taxt uchun kurashlar to‘rt yil davom etdi . Nihoyat , 1409 yilda Temurnig o‘g‘li Shohruh ikki mustaqil davlat tuzishga muvaffaq bo‘ldi. Bularidan biri Xuroson davlati poytaxti Hirot shahri podshohi Shohruh . Ikkinchisi Movaarunnahr davlati bo‘lib , poytaxti Samarqand unga Shohruhning o‘g‘li Ulug‘bek hukmronlik qildi.

Rivoyatlarga ko‘ra Temurning jasadi qabridan o‘g‘irlangan degan taxminlar ham bo‘lgan.

O‘zbek xalqining ulug‘ shoiri , g‘azal mulkinining sultoni Alisher Navoiy tug‘ilganligini 500 yil to‘lishi munosabati bilan 1940 yil iyun oyida Temuriylar davriga oid bo‘lgan moddiy madaniyat yodgorliklarini . jumladan,Samarqanddagи Temuriylar maqbarasini va unga ko‘milganlardan Temur , Shohruh va Ulug‘bek qabrlarini ochib ularni tekshirish bo‘yicha hukumat ekspedisiyasi tashkil qilindi. Ekspedisiya tarkibiga Akademik T.N.Qori—Niyoziy rahbar , a’zolari Sobiq ittifoq Fanlar akademiyasi Moddiy madaniyat institutinig ilmiy xodimi M. Gerasimov , antropolog professor L. Oshanin , eronshunos professor A. Semenov ,Leningrad Davlat ermitajining ximik – restavratori. Kononov , arxitektor B. Zasipkin , O‘zFAN ilmiy xodimi V.Shishkin va Navoiy yubileyini o‘tkazish komissiyasining sekretari H. Zarifovlar dan iborat edi.

Ekspedisiya uyushtirishdan maqsad ba’zi tarixiy ma’lumotlarni aniqlash , Temur va Ulug‘bek qiyofalarini yaratishdan iborat edi. Bundan tashqari Ibn Arabshohning ma’lumoticha , Temurning jasadi po‘latdan yasalgan tobutga solib ko‘milgan degan fikrlarni aniqlash edi .Go‘r ochilganda Temurning jasadi yog‘ochdan qilingan tobut ichida ekanligi aniqlandi.Qori –

Niyoziyning yozishicha :” Tobutning ustida oltin va kumush iplar bilan oyat (bo‘lsa kerak) yozilgan materialning parchalari saqlangan Ujuda yomon holatda bo‘lgani uchun , undagi xatlarni o‘qish mumkin bo‘lmadi.Bu parchalar Temurning jangovar bayrog‘ining qoldiqlari deb faraz qilinadi . Shunisi xarakterlik , Temurning boshida sochlari , shuningdek ,qoshlari ,ayniqsa ,o‘ng qoshi asosan saqlangan ; soqolining izlari ham ravshan.Antropolog professor L. V. Oshanin jasadning suyaklarini tekshirganda ,quyidagilar aniqlangan edi ; Temur yelkasi keng va bo‘yi o‘rtacha—166,2sm bo‘lgan. Miyasining hajmi 1668 kub. Sm bo‘lib , u erkak kishi miyasining o‘rta hajmidan (1500 kub . sm) ortiqdir. O‘ng qo‘li va o‘ng oyog‘i mayib bo‘lib , prof. N .A. Bogorazning rentgen yordami bilan tekshirishga muvofiq , Temur yigitligida suyak tuberkulyozi bilan kasal bo‘lgan .Ko‘rsatkich barmog‘i o‘zining odatdagi formasini yo‘qotgan (jangda yarador bo‘lgan).

Shunday qilib , Temur o‘ng oyog‘ida oqsoq bo‘lib , o‘ng qo‘lini qiynalib ishlatgan. Bularning hammasi tarixiy ma’lumotlarni tasdiq qiladi va tekshirilgan jasadni haqiqatda ham Temur jasadi ekanligiga hech shubha qoldirmaydi. Bu esa , Temurning jasadi o‘g‘irlangan degan faraziiyani ham tamomila rad qiladi.”⁴⁷⁷

Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab , mustamlakachilik yillaridagi mutelik , qaramlik , millat ruhini ko‘tarish , milliy davlatchiligidan barpo etish va dunyoga tanitishda Amir Temur shaxsidan foydalanish davlat siyosatining ustuvor vazifasidan biriga aylandi . Xususan , 1993 yil Mustaqilligimizni ikki yilligini nishonlash arafasida Toshkentda yetti iqlim hukmdori Amir Temur haykali o‘rnatildi .Hamda shu yili ulug‘ shajaraning – Mirzo Ulug‘bek , Bobur singari buyuk s+iy molari yubileyi sanalari keng nishonlandi .

1996 yili “Amir Temur yili” deb e’lon qilindi.” Temur tuzuklari “ bir necha tillarga chop etildi . Samarqandda muqaddas qadam joy – Amir Temur maqbarasi ta’mirlandi. 1996 yilning bahorida YUNESKO doirasida Parijsda xalqaro tadbirlar o‘tkazildi. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov xalqaro ilmiy anjumanda nutq so‘zladi : “Bizning tariximizda Amir Temurday ulug‘ siymo bor ekan , uning qoldirgan merosi , pandu – o‘gitlari bugungi hayotimizga hamohang ekan , oldimizda turgan muammolarni yechishda bizga qo‘l kelayotgan ekan , bizning bu merosni o‘rganmasdan , ta’riflamasdan , targ‘ibot qilmasdan haqqimiz yo‘q .

Shuning uchun mana shu minbardan turib , bugun O‘zbekiston xalqiga , qolaversa butun jahon ahliga qarata “ Amir Temur bizning faxrimiz , iftixorimiz , g‘ururimiz ! “ -- deb aytsam , deb o‘ylamangki xato qilmagan bo‘laman .⁴⁷⁸

1996 yil 18 oktyabr kuni Toshkentning qoq – markazida Qur’on tilovat qilinib Temuriylar tarixi davlat muzeyi ochildi .Mazkur tadbirda Birinchi Prezident quyidagicha so‘zladi “ Buyuk shaxslarni tarix yaratadi , deydilar Bunga qo‘sishma qilib Sohibqiron bobomizning suronli

⁴⁷⁷ T. N. Qori –Niyoziy “ Hayot maktabi “ T.”Fan “-1970. 246 b.

⁴⁷⁸ (NARZULLA JO‘RAYeV “ Agar ogoh sen ...” T. “ Yozuvchi “ nash. 1998 y. 174 b.)

hayotini hayol ko‘zgusidan o‘tkazib , buyuk shaxslarni millat qayo‘usi , xalq dardi yaratadi , deyish mumkin “⁴⁷⁹ – dedi u .

Mustaqilligimizni besh yilligi arafasida Samarqand shahri “ Amir Temur ordeni bilan mukofatlandi .Bu unitimas kunni har yili 18 oktyabr “ Samarqand kuni “ deb e’lon qildi . Hamda Temurning tug‘ilgan ona yurti Shahrisabzdagi Oqsaroy hovlisiga Amir Temurning ulug‘vor haykali o‘rnatildi.Shahrisabz shahri bayrog‘iga “ Amir Temur “ ordeni taqib qo‘yildi.

Xullas Amir temur farzandlarimizni , kelgusi avlodlarimizning nomi va merosi bilan faxrlanishga o‘rgatish , ularni ana shu buyuk an’analarni munosib davomchilari qilib tarbiyalashda , milliy g‘urur , milliy ongni yuksaltirishda katta ahamiyatga molik.

Bugungi kunda yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda Amir Tyemur hayotini o‘rganish , uning harbiy yurishlaridagi o‘ziga xos jang uslublari ,jasorati ,dovyurakligi davlat boshqaruvidagi mahoratini ta’lim tizimida o‘rgatish dolzarb mavzulardan biridir.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI :

- 1.Amir Temur “ Temur tuzuklari “ T. G‘,G‘ulom nash. 1991 y.
- 2.Amir Temur Ko‘ragon “ Zafar yo‘li “ T. “ Nur “ nash. 1992 y.
- 3.Bo‘riboy Ahmedov “ Amir Temur “ T. “ A. Qodiriy nash.1995 y.
- 4.Ashraf Ahmad “Mirzo Ulug‘bek avlodlari “ “A. Qodiriy nash.” 1994y.
- 5.Ashraf Ahmad “Ulug‘bek Muhammad Tarag‘ay “A. Qodiriy nash “. 1994 y.
- 6.Sergey Borodin “Samarqand osmonidagi yulduzlar “ romani. trilogiya 2 kitob. T.G‘.G‘ulom nash.1970.
- 7.Narzulla Jo‘rayev Agar ogoh sen ...” T. “ Yozuvchi “ nash. 1998 y. 174 b.

⁴⁷⁹ (N. J. 176 b.)